

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI



**« KOSTYUM KREATIV GRAFIKASI VA KOMPOZISIYASI »
FANINING O‘QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 700 000 –Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta’lim sohasi:** 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- Ta’lim yo‘nalishi:**
 - 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari texnologiyasi)
 - 60721200 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (shbakt)
 - 60721400 – Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (tikuvchilik sanoatida kreativ loyihalash va innovatsion texnologiyalar)

| Fan/modul kodi KKGK12311 | | Semestr 2,3 | ECTS-kreditlar 11 | |
|-----------------------------|--|--|---------------------------|------------------------------|
| Fan/modul turi majburiy | | Ta'lim tili O'zbek, rus | | Haftadagi dars soatlari 8 |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | « Kostyum kreativ grafikasi va kompozitsiyasi » | 132 | 198 | 330 |
| 2. | <p>I.Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – “kostyum kreativ grafikasi va kompozitsiyasi” fani kostyum grafikasini yaratish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantiruvchi, hamda libos eskizlarini chizish va rasmiylashtirishni ilk bor o'rganayotgan potensial dizaynerlar uchun mo'ljallangan. Kostyum grafikasi, rassom ijodini namoyish etishdan tashqari, o'zida mujassam etgan texnik hususiyatlarini, ya'ni amaliy ma'lumotlarni va tasvirlangan obrazni, kiyim ishlab chiqarish jarayoniga moslashtirishdan iborat.</p> <p>Fanni vazifasi –bo'lajak bakalavrlarni ishlab chiqarish sohasida kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan birga, ularning badiiy qobiliyatini, didi va ijodkor sifatida ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Shuning uchun bu fan ijodiy faoliyat va ishlab chiqarishni loyihalash tizimining tarkibiy qismidir. Kurs talabalarning badiiy ta'limini kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilgan bo'lib, olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs, diplom loyihalarini bajarish va real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.</p> <p>II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari): Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>1-mavzu. Material, jixozlarni tanlash va ulardan foydalanish Rasm chizishda qo'llaniladigan material, jixozlar turi bilan tanishish va ulardan to'g'ri foydalanishni o'rganish.</p> <p>2-mavzu. Kompozitsiya tushunchasi. Kompozitsiya xossalari, usullari va turlari. Fan haqida umumiy tushuncha.</p> <p>3- mavzu. Grafika haqida tushuncha. Grafika tasvirlashning usullari va vositalari.</p> <p>4-mavzu. Kompozitsiyada simmetriya va asimmetriya Simmetriya san'atning xar bir turida badiiy obraz yaratish, uygunlikni xosil</p> | | | |

qilish vositasi sifatida katta ahamiyati

5-mavzu. Simmetrik va asimmetrik abstrakt kompozitsiyalar tuzish
Kompozision shakllantirish va kostyum proporsiyalarini o'rganish. Mavzu bo'yicha grafik tasvir vositalarini abstrakt kompozitsiyalar va for-eskizlar tuzishda qo'llashni o'rganish (nuqta, chiziq, dog'- tochka, liniya, pyatno).

6-mavzu. Proporsiya va proporsionallik
Arifmetik proporsiyalar mutanosibligi. Geometrik proporsiyalar mutanosibligi.

7-mavzu. Ritm, modul metrik takrorlanish.
Muvozanat, dinamik va statiklik. Metr va ritm. Metrik va ritmik munosabatlar. Metr ta'rifi. Metr misollari. Metrik qator. Kompozitsiyadagi metrik qatorlar. Ritm ta'rifi. Ritm – metrning ko'rinishi. Ritm qatori.

8-mavzu. Muvozanat, dinamiklik va statiklik
Kompozitsiyadagi muvozanat, dinamiklik va statiklikning ko'rinishi.

9- mavzu. Masshtab va masshtablilik. Kontrast, nyuans, tenglik
Turli emotsiyalarni yetkazish, ta'sirchanlik va ifodalilikka libosda turli chiziqlar yordamida erishiladi.

10- mavzu. Ritmik va metrik qatorlar ishtirokida statik va dinamik abstrakt kompozitsiyalar tuzish.

Grafik tasvir vositalarini qo'llash, Ritmik va metrik takrorlanishlar vositasida statika dinamika kategoriyalarini qo'llash, kompozitsiya tuzish

11- mavzu. Rang uning kompozitsiyadagi o'rni.
Rangshunoslik - rang haqidagi fan bo'lib, rangni an'anaviy o'rganishdan tashqari rang madaniyati, rang garmoniyasi haqidagi bilimlarni xam beradi.

12-mavzu. Rangning asosiy xarakteristikalari. Axromatik va monoxrom rangli qatorlarni tuzish.

Axromatik va monoxrom ranglardan tashkil topgan qatomi to'g'ri tuzishni o'rganish. Monoxrom va axromatik ranglardan abstrakt kompozitsiyalar tuzish.

13- mavzu. Rang doirasini tuzish.

Rang doirasidagi ranglarni hosil qilish va ularni ma'lum tartibda to'liq joylashtirishni o'rganish

14- mavzu. O'xshash-kontrast ranglardan abstrakt kompozitsiyalar tuzish.

O'xshash-kontrast ranglardan kompozitsiyalar tuzayotganda ranglararo munosabatlarni o'rganish. Kontrast ranglardan abstrakt kompozitsiyalar tuzish Kontrast ranglardan kompozitsiyalar tuzayotganda ranglararo munosabatlarni o'rganish.

15- mavzu. Hajmiy-fazoviy struktura

Kompozitsiyaning muxim kategoriyalaridan biri - buyunning xajmiy-fazoviy strukturasidir.

16- mavzu. Tekislikning dekorativ transformatsiyasi. Tektonika va plastiklik

Yassi materialni transformatsiya qilish natijasida nafakat uning dekorativ (bezakli) va estetik sifatlarining yaxshi natijalari hosil qilinadi, balki konstruktorlik-mexanik xossalarini xam yaxshilashga xam erishiladi.

17 - mavzu. Libosda kompozitsiya va rang.

Dizaynerlik eskizida libos eskizini chizish odam gavdasini tasvirlash. Qoralama va ishchi eskizlarini chizish

18-mavzu. Odam gavdasining proporsiyalari

Odam qomatini o'rganish jarayoni. Odam qomatini chizish va gavda turish holatini yaratish asoslarini egallagandan so'ng, keyingi bosqich bu libos chizishni o'rganish.

19-mavzu. Libosdagi siluet: siluet chiziqlari,

Mavzu bo'yicha grafik tasvir vositalarini for-eskizlar tuzishda qo'llashni o'rganish (nuqta, chiziq, dog' - tochka, liniya, pyatno).

20-mavzu. Libosda konstruktiv chiziqlar, konstruktiv-dekorativ chiziqlar, dekorativ chiziqlar

Turli emotsiyalarni yetkazish, ta'sirchanlik va ifodalilikka libosda turli chiziqlar yordamida erishish.

21-mavzu. Libos kompozitsiyasini tuzishda simmetriya va asimmetriyani, ritmik va metrik takrorlanishlarni, o'xshashlik, nyuans, va kontrastni, kompozision markazni aks ettiruvchi eskizlarni chizish.

Libos kompozitsiyasida har xil proporsiya turlarini o'rganish, eskizlarni tahlil qilishni amaliy qo'llash.

22-mavzu. Material sirtidagi turli faktura va teksturalarni aks ettirishni o'rganish.

Libos eskizlarini chizayotganda material sirtidagi turli faktura va teksturalarni aks ettirishni o'rganish.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'Ichamlari turli kattalikdagi yoki turli ko'rinishdagi shakllar ichida mavzuli abstrakt kompozitsiyalar (shu jumladan rangda) tuzing.

2. Siluetlari turli geometrik shaklni yoki shakllar birikmasini eslatuvchi libos eskizlarini chizing.

3. Rasm chizishda qo'llaniladigan material, jixozlar turi bilan tanishish va ulardan to'g'ri foydalanishni o'rganish.

4. Mavzu bo'yicha grafik tasvir vositalarini abstrakt kompozitsiyalar va for-eskizlar tuzishda qo'llashni o'rganish

5. Abstrakt kompozitsiyalar va for-eskizlar tuzishda qo'llashni o'rganish

6. Rang doirasidagi ranglarni hosil qilish va ularni ma'lum tartibda to'liq joylashtirishni o'rganish

7. Ranglardan tashkil topgan qatorni to'g'ri tuzishni o'rganish.

8. Ranglardan kompozitsiyalar tuzayotganda ranglararo munosabatlarni o'rganish.

9. Odam qomatini chizish va gavda turish holatini yaratish asoslarini egallagandan so'ng, keyingi bosqich bu libos chizishni o'rganish.

10. Libos kompozitsiyasida har xil proporsiya turlarini o'rganish, eskizlarni tahlil qilishni amaliy qo'llash.

Talabani badiiy ijodga o'rgatish jarayoni nafaqat auditoriyalardagi ustoz-pedagog bilan olib boriladigan yakka tartibdagi mashg'ulotlar, balki, o'qish jarayonida kostyum elementlarining turli murakkab shakllarini fazoviy-hajmiy tassavvur qila olish va materialda aks ettirish, kostyumning uyg'unlashtirish vositalari, g'oyadagi obrazning emosional ifodaliligiga erishish, qo'shimcha manbaalar bilan ishlay olish - bularning barchasi ijodkor liboslar dizaynning mustaqil ishlash mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

| | |
|----|--|
| 3. | <p>IV. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalar <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; - fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, jahonda mashhur moda uylari va brendlar tarixi, jahon xalqlari milliy liboslari bo'yicha videofilmlar, prezentasiyalar, ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar, moda jurnallari hamda tarixiy kostyum namunalari va maketlari - <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; - dizaynerlik soxasiga va unga aloqador tarmoqlarning holati va rivojlanish istiqbollari ko'rish, zamonaviy moda yo'nalishi ko'rgazmalari, xalqaro dizaynerlari ijodi CD - va DVD - namoyishlari ishlab chiqarish - <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i> |
| 4. | <p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • laboratoriya mashg'ulotlari; • interfaol keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • jamoa bo'lib ishlash; • video materiallar tayyorlash; • individual ishlash. • |
| 5. | <p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p> |
| 6. | <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xudoyberganov R. "Rangshunoslik asoslari". O'quv qo'llanma. SHarq. 2006 yil. Xasanboeva G.K. Kostyum dizayni. Toshkent: TTESI, 2013 2. Muinov O. "Rangtasvir". O'quv qo'llanma. SHarq. 2007 yil. 3. Zarida Zaman. New fashion desingners' skeatchbook- L.:A&C black publishers, 2011 4. N.S. Makaveeva. Osnovi xudojestvennogo proektirovaniya kostyuma. Praktikum. – M.: Akademiya, 2008.-230 s. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy |

| | |
|----|--|
| | <p>javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.</p> <p>6. L.A.Safina, L.M.Tuxbatulina, V.V.Xammatova – Proektirovanie kostyuma – Rostov-na-Donu: Feniks, 2007.-283 str.</p> <p>7. Caymon Trevers-Spenser i Z.Zaman, Spravochnik dizaynera po formam i stilyam odejdi.-M.: Ripol klassik, 2008</p> <p>8. Jumali «Style», «Vogue», «Burda Moden», «Industriya modi», «Tekstilnaya promishlennost», «Kojevenno-obuvnaya promishlennost», Jurnal «SHveynaya promishlennost»</p> <p style="text-align: center;">Axborat manbalari:</p> <p>9. http://ziyonet.uz/uzc/library/</p> <p>10. www.assol.mipt.ru</p> <p>11. www.cad.ru</p> <p>12. www.liveinternet.ru/tags/konstruirovaniye_odejdi/</p> <p>13. www.liveinternet.ru/community/1000812/post238328759</p> |
| 7. | <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2023 yil “29” <u>ok</u> dagi “/” -sonli bayonnomasi bilan maqullangan.</p> |
| 8. | <p>Fan/modul uchun mas'ullar: Ergasheva N.D. – TTYeSI, «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi» kafedrası dosenti</p> |
| 9. | <p>Taqrizchilar: F.Atahanova K.Bexzod nomidagi MRDI « Libos dizayni» kafedrası dosenti s.f.f.d.(PhD). M.Shomansurova TTYeSI «Libos dizayn» kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD).</p> |